



# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, [nurota@nv.uz](mailto:nurota@nv.uz)

2023 - yil 30 - dekabr

167-5-74-Q/23

Nurota tumani hokimligi

## **Tumanda 2024-yilda transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini tashkil etish va uni o'tkazish to'g'risida**

“Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-,7-moddalari (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 15-son*), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Nizomning 32-bandiga (keyingi o'rinlarda – Nizom) muvofiq, tumanda transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko'rigini tashkil qilish maqsadida Nurota tuman Ichki ishlar bo'limining 2023-yil 12-dekabrda 24/5169-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-, 27-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha kelgusi yil uchun tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, uni o'tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo'yidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan (haydovchining o'rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko'p bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo'lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko'rikka transport vositasi shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazishning ilgari o'rnatilgan muddatlaridan qat'i nazar, ularni Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o'rinlarda DYHXX) organlarida ro'yxatdan o'tkazish (qayta

ro'yxatdan o'tkazish) vaqtida (birinchi marta ro'yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalarining texnik ko'rigi:

birinchi marta 1-mart - 30-iyunda;

ikkinchi marta 1-sentabr - 31-oktabrda o'tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko'rigi 1-yanvar - 31-dekabrda o'tkaziladi.

5. Transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda:

transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko'rsatilgan ma'lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovoqli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda qonunchilikda byelgilangan tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish majburiyati yuklansin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 16-dekabrda "Tumanda 2023-yilda transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini tashkil etish va uni o'tkazish to'g'risida"gi 191-5-74-Q/22-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Tuman Ichki ishlar bo'limi DYHX guruhi (O.Safarov)ga mazkur qarorning ijrosi natijalari bo'yicha 2024-yil 10-noyabrga qadar tuman hokimligiga axborot taqdim etish topshirilsin.

11. “Nurnoma” gazetasi tahririyatiga ushbu qarorni rasmiy nashrda e’lon qilish tavsiya etilsin, tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov) bir kunlik muddatda tuman hokimligi rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta’minlasin.

12. Mazkur qaror ijrosini tashkil etish tuman ichki ishlar bo’limi boshlig’i U.Abdurahmonov, qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari O.Oxunjonov zimmlariga yuklansin.

13. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi**



**A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining  
2023-yil 30-dekabrdagi  
167-5-74-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko'rigini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi**

**T A R K I B I**

**Komissiya raisi :**

O.Safarov Tuman IIB YHXG DYHX katta inspektori, leytenant

**Komissiya a'zolari:**

B.Raximov - Navoiy viloyat transport boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

H.Muxiddinov - Tuman mudofaa ishlari bo'limi elektron ma'lumotlar bo'linmasi boshlig'i

L.Norbekov Tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig'i  
**Komissiya kotibi:**  
A.Haydarov Tuman ichki ishlar bo'limi YHXG ma'muriy amaliyot inspektori

Nurota tuman hokimining  
2023-yil 30-dekabrdagi  
167-5-74-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish**

**J A D V A L I**

№	Tashkilot, korxonalar, xo'jalik va muassasalar nomi	Texnik ko'rik o'tkazish kunlari	Texnik ko'rik o'tkazish vaqti	Texnik ko'rik o'tkaziladigan joy	Transportlar soni
1	Nurota tuman hokimligi	05.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	10
2	'AVTO HAMKOR NUROTA' MCHJ	10.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	12
3	"TOSHNAZARBOBO" F/X	12.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
4	"MAKIS LAYD" MCHJ	15.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
5	Nur Azim kelajagi x/k	16.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
6	Azimjon Umarbek Temurbek x/k	17.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
7	ISMAT XOMIT F/X	18.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
8	USKUNA TA'MIR MCHJ	19.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
9	ShERZOD NUR TOMARKA XIZMATI MCHJ	23.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
10	"NUROTA DAVLAT O'RMON XO'JALIGI"	24.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
11	JUMAN TOSHNIYOZ TOGAYMUROD X/K	25.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
12	Nur shoxjaxon Baraka oil" MCHJ	26.03.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
13	Adolat Dildora x/k	02.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
14	MURUVVAT NOGIRONLAR UCHUN ERKAKLAR INTERNATI	05.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
15	Razzoqbek Shaxriyor x/k	09.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
16	Tuman MTB	13.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
17	NEW LIFE INVEST" mchj	15.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	4
18	SOXIB BOZOR YUK VA YULOVCHI TASHISH MCHJ	16.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	6
19	Qizilqum Kemel Travel" MCHJ	20.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
20	MCHJ "ARBA " MCHJ	20.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	7
21	VATANPARVAR TASHKILOTI NUROTA TUMAN USTK	22.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	10
22	NUROTA TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI	24.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	21
23	Nur Avtosaltanat MCHJ	26.04.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
24	NUROTA TUMAN NURNOMA GAZETASI D/K	03.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
25	"Raximobod" MCHJ	04.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
26	OBI XAYOT ALMAZ MCHJ	06.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	5
27	Chashma trans servis MCHJ	07.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2

№	Tashkilot, korxonalar, xo'jalik va muassasalar nomi	Texnik ko'rik o'tkazish kunlari	Texnik ko'rik o'tkazish vaqti	Texnik ko'rik o'tkaziladigan joy	Transportlar soni
28	NUROTA TUMAN 2-SON KASB XUNAR MAKTABI	10.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
29	INOMJON-IZATILLO X/F	12.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
30	Komiljon Avto Tex Xizmat" MCHJ	14.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
31	Tuman SEO ses	17.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	5
32	Chashmi Nurota	18.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
33	MCHJ "AL-ZAVKIY MCHJ"	20.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
34	KAMOLOT YOIX NUROTA TUMAN BULIMI KENGASHI	20.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
35	JIYANBOY F/X	21.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
36	Muxammadjon tex export	21.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
37	Qaxrabo Nurota x/k	24.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	4
38	"INTENSIV BOG" F.X	24.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
39	"Premer Textile x/k	25.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
40	"EGIZ KAMAR KICH KOR"	25.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
41	Nusrat Maxsum x/k	26.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
42	NAVOIY UNIQUE COMFORT SERVICE XK	26.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
43	NUROTA TUMAN XTB BULIMI	27.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
44	Tuman obodonlashtirish	27.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	7
45	Tuman YFUK	27.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	33
46	Fayz Axmad Nur tarans	28.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	37
47	Tuman vetenariya	28.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
48	Tuman elektr tarmoqlari	28.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	5
49	Tuman moliya	28.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
50	Nurota 1-sonli KASB XUNAR MAKTABI	28.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
51	"Al-Arab-Sherzod" xususiy firmasi	31.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
52	"Farrux Zarina" xususiy korxonasi	31.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
53	Nurota "NURNOMA" gazetasi taxririya davlat korxonasi	31.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
54	Tuman "Agrokimyoxizmat" shu'ba korxonasi	31.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
55	"Ustoxo'ja" f/x	31.05.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
56	"Chashma tarixiy me'moriy majmuasi" DUK	01.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
57	"ZAFAR GRANITE MINING" q/k	01.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	15
58	"Shahlo-Ravshan qizi" MCHJ	01.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
59	"Qizilcha qora ko'l naslchilik" MCHJ	01.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	5
60	"GEMO-TEST" x/k	01.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
61	"OCHIL" MJCH	02.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	3
62	"Chashma trans servis" MCHJ	02.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
63	"Azizbek kelajak sari" MCHJ	02.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	5
64	"PASHSHOT GRANIT" MCHJ	02.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2
65	NAVOIY OBI XAYOT	02.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	2

<b>№</b>	<b>Tashkilot, korxonalar, xo'jalik va muassasalar nomi</b>	<b>Texnik ko'rik o'tkazish kunlari</b>	<b>Texnik ko'rik o'tkazish vaqti</b>	<b>Texnik ko'rik o'tkaziladigan joy</b>	<b>Transportlar soni</b>
66	"AZIM AVAZ KELAJAGI" MCHJ	03.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
67	"USKUNA TA'MIR" MCHJ	03.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
68	"N O'MON-SAMI" f/x	03.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
69	"DAGMAR-OQDARYO" x/k	03.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
70	"OBI XAYOT ALMAZ" MCHJ	03.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
71	"TANXO AZIMJON TOMORQA XIZMATI" MCHJ	04.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
72	"NUR SHOHJAHON BARAKA OIL" MCHJ	04.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
73	"MAKIS LAYD" MCHJ	04.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	1
74	"AMIR-MALIK" MCHJ	04.06.2024 yil	10:00	Nurota shahar	

Izoh: Transport vositasi texnik ko'rikka belgilangan muddatlardan oldin taqdim etilishi mumkin. Ushbu holda transport vositasini texnik ko'rikka taqdim etish muddatini o'zgartirish to'g'risidagi qaror transport vositasi egasi-yuridik yoki jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida DYHXning tegishli hududiy bo'linmasi rahbari tomonidan qabul qilinadi.